



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

FRANSUZ TILI UNDOSHLLAR SINTAGMATIKASIDAGI DARAJALI(GRADUAL) MUNOSABATLARINING AYRIM JIHLATLARI

Mamasoliyeva Gulchexra Abduxalilovna
Andijon davlat chet tillar instituti,dotsent

Annotatsiya.

Maqolada fransuz tili undoshlarining sintagmatik munosabatdagi darajali munosabatlarining ayrim jihatlari o'rganiladi. Tadqiqot fonetik va fonologik muhitning artikulyatsiya, akustik xususiyatlar va undoshlarning so'z va iboralarda boshi, o'rta va oxiriga kelishiiga qarab pozitsion o'zgarishlarga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. E'tibor koartikulyatsiya, assimilyatsiya, reduksiya va eliziya jarayonlariga qaratilgan bo'lib, ular fonemalarning sintagmada turli darajalardagi o'zaro ta'sirini namoyon qiladi. Tahlil undoshlarning so'zdagi holatiga qarab fonetik va fonologik darajali qatorlarini aniqlaydi va fransuz tili fonologik tizimini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: fransuz tili, undoshlar, sintagmatika, darajali munosabatlar, koartikulyatsiya, assimilyatsiya.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ГРАДУАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СИНТАГМАТИКЕ ФРАНЦУЗСКИХ СОГЛАСНЫХ

Мамасолиева Гульчехра Абдухалиловна

Андижанский государственный институт иностранных языков, доцент

Аннотация.

В статье рассматриваются некоторые аспекты градуальных отношений французских согласных в синтагматическом контексте. Исследование направлено на изучение влияния фонетической и фонологической среды на артикуляцию, акустические характеристики и позиционные изменения согласных в начале, середине и конце слов и выражений. Особое внимание уделяется процессам коартикуляции, ассимиляции, редукции и элизии, которые демонстрируют различные степени взаимодействия фонем в синтагме. Анализ выявляет фонетические и фонологические градуальные ряды в зависимости от позиции согласных в словах, что способствует лучшему пониманию французской фонологической системы.

Ключевые слова: французский язык, согласные, синтагматика, градуальные отношения, коартикуляция, ассимиляция.

SOME ASPECTS OF GRADUAL RELATIONS IN THE SYNTAGMATICS OF FRENCH CONSONANTS

Mamasoliyeva Gulchexra Abduxalilovna

Associate Professor, Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract.

The article examines certain aspects of the gradational relationships of French consonants in syntagmatic contexts. The study focuses on the influence of phonetic and phonological environments on articulation, acoustic features, and positional changes of consonants at the beginning, middle, and end of words and phrases. Attention is given to coarticulation, assimilation, reduction, and elision processes, which demonstrate the varying degrees of interaction between phonemes within the syntagma. The analysis identifies phonetic and phonological gradation patterns according to consonants' positions in words, contributing to a better understanding of the French phonological system.

Keywords: French language, consonants, syntagmatics, gradational relationships, coarticulation, assimilation.

KIRISH

Undoshlar sintagmatikasidagi darajali munosabat masalasi qiziqarli mavzu bo'lib, unda fonologik birliklarning darajali ketma-ketlikda o'zaro ta'siri, turli fonetik va morfologik kontekstlarda nisbiy ta'siri kabi jihatlar ko'rib chiqiladi.

Sintagmatika - tilshunoslikning sintagma (nutq segmenti) ichidagi tovushlar ketma-ketligidagi elementlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi bo'lim.

Undosh tovushlarning nutqdagi ta'sirini tushunish undosh tovushlarning kontekst va sintagmadagi joylashuviga qarab qanday o'zgarishini, shuningdek, bu o'zgarishlar nutqni idrok etishga qanday ta'sir qilishini tahlil qilishga yordam beradi. Undosh tovushlarning so'zdagi yoki ibora kontekstidagi o'rniga qarab, assimilyasiya, yo'q qilish, qisqarish kabi fonologik jarayonlar turli darajada sodir bo'lishi mumkin. Undoshlar tizimining turli holatlarini taqqoslash natijasida bir holatdan ikkinchi holatga o'tishda sodir bo'ladigan o'zgarishlar kuzatiladi.

Fonologik tasnifga sintagmatik jihatdan qaralganda, tildagi birliklarning ma'lum o'rinda biror xususiyatini o'zgarishi, biroq bu ularni farqlash uchun xizmat qilmasligi ko'rinadi.....fonemalarni nutq jarayonidagi bir qancha variantlari sintagmatik xususiyatga tegishlidir.[1.20]

Fransuz undoshlari sintagmatikasidagi daraja munosabati tovushlarning nutq kontekstida qanday moslashishini tushunish uchun kalit hisoblanadi. Fonetik kontekst, intonasiya, pauzalar, ijtimoiy va dialektal farqlar undoshlarning artikulyasiyasiga ta'sir qiladi, ularning intensivligi, talaffuz darajalarining aniqligi va idrokini o'zgartiradi. Ushbu bosqichma-bosqich o'zgarishlar fransuz fonologiyasining ajralmas qismi bo'lib, turli xil sharoitlarda fransuz nutqining dinamikasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Tadqiqotda aniqlangan muammolar shundan iboratki, fransuz tili undoshlarining sintagmatik holatdagi darajali munosabatlari yetarlicha o'rganilmagan. Hozirgacha olib borilgan tadqiqotlarda undoshlarning koartikulyatsiya, assimilyatsiya, reduksiya va eliziya jarayonlari kontekstga qarab qanday o'zgarishi va bu jarayonlarning fonetik hamda fonologik tizimga ta'siri chuqur tahlil qilinmagan. Shu bilan birga, undoshlarning so'z boshi, o'rta va oxiridagi pozitsion o'zgarishlar orqali hosil bo'ladigan fonetik va fonologik darajalar yetarlicha aniqlanmagan, bu esa fransuz fonologiyasining sintagmatik dinamikasini to'liq tushunishga xalaqit beradi. Tadqiqot muammosi shundan iboratki, mavjud adabiyotlarda undoshlarning sintagmatik munosabatdagi gradual xususiyatlari va ularning nutq jarayonidagi roli tizimli ravishda o'rganilmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Dunyo tilshunosligida fonetika va fonologiya bo'yicha ilk nazariy qarashlar, shu jumladan fonema va nutq tovushi o'rtasidagi munosabatlar Ferdinand de Sossyur, Boduen de Kurtene ishlarida shakllana boshlagan. Keyinchalik mazkur masalalar L. V. Sherba, L. Yelmslev, L. R. Zinder, R. I. Avanesov, A. A. Reformatskiy, M. I. Matusevich, V.A.Vinogradov kabi olimlar tomonidan izchil ravishda rivojlantirildi. **Fransuz tili fonetikasi K.K Barishnikova, A. N Rapanovich, M.V Gordina, N.A. Katogishina, M.A Viller, L.PAndreychikova, M.Ubaydullaev, N.A.Yusupova** kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib, mazkur yo'nalishning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shilgan

Fransuz fonologiyasida undosh tovushlarning sintagmatik munosabatlari nutq ritmi va intonasiyasini shakllantirishda asosiy o'rin tutadi. Bu munosabatlar, shuningdek, iboraning turli pozitsiyalaridagi undoshlarning faollik darajasiga yoki ta'sir kuchiga bog'liq bo'lib, bu

ularning artikulyasiyasi, qisqarishi, soʻzlarning oʻzaro bogʻlanish hodisasi va yondosh tovushlar bilan oʻzaro taʼsirining asta-sekin oʻzgarishi bilan bogʻliq.

Undosh tovushlarning nutqdagi taʼsirini tushunish undosh tovushlarning kontekst va sintagmadagi joylashuviga qarab qanday oʻzgarishini, shuningdek, bu oʻzgarishlar nutqni idrok etishga qanday taʼsir qilishini tahlil qilishga yordam beradi. Undosh tovushlarning soʻzdagi yoki ibora kontekstidagi oʻrniga qarab, assimilyasiya, yoʻq qilish, qisqarish kabi fonologik jarayonlar turli darajada sodir boʻlishi mumkin.

Darajali munosabatlar undoshlarning oʻzaro artikulyasion yoki akustik masofasidagi tafovutni ifodalaydi. Bu munosabatlar bir qancha asosiy parametrlar orqali belgilanadi:

Artikulyasiya darajasi: undoshlarning ogʻiz, til yoki lab pozitsiyalariga bogʻliq ravishda tuzilgan munosabatlari orqali aniqlanadi. Masalan, /p/ va /b/ fonemalari artikulyasiyasidagi farq jarangli yoki jarangsizlikda namoyon boʻladi. Bu ikki undosh paydo boʻlish oʻrniga koʻra portlovchi, lab-lab undoshlari boʻlsada, **[p]- jarangsiz (sourd)**, boʻlib artikulyasiya jarayonida toʻsiq lablar ostida havo oqimi kuchch bilan toʻsiqni yorib oʻtadi, tovush paychalari tebranmaydi. **[p] –jarangli(sonore)** talaffuzda tovush pachalari titraydi. [2.15-16]

Masalan: petit (kichik) soʻzidagi /p/ va /t/ oʻrtasidagi artikulyasiya darajadagi farq undoshlarning oʻzaro sintagmatik munosabatlarini yaqqol namoyon etadi. "**petit**" soʻzi tahlilida /p/ va /t/ undoshlari bir-biriga taʼsir darajasini qiladi. /p/ dagi lablanganlik (labialization) baʼzan /t/ ga koʻchishi mumkin va bu talaffuzda engil koartikulyasion oʻzgarishlar keltirib chiqaradi. **Coarticulation-** fonemalarning talaffuz variantlarining fonetik va prosodik kontekstga bogʻliq ravishda oʻzgaruvchanligidir. [3.237] Bunda esa soʻzning oʻrtasida kelgan portlovchi, til-tish, jarangli t undoshi, soʻzdagi p undoshi taʼsirida odatdagi t undoshiga nisbatan lablanganlik belgisini oladi. Xulosa shuki, bu ikki undosh oʻzaro sintagmatik munosabatda boʻlib, koartikulyasiya natijasida biri ikkinchisining talaffuziga taʼsir qilishi mumkin. Ammo, fransuz tili kundalik muloqotida, ayniqsa tez talaffuz jarayonida /t/ elision hodisasiga uchrashi yoki lablanganlik belgisiga oʻtishini uchratish mumkin. Shunday qilib, "**petit**" soʻzidagi /p/ va /t/ oʻrtasidagi artikulyasion farq fonetik, akustik va fonologik jihatdan muhimdir. Ular soʻz ichida sintagmatik jihatdan bir-biriga taʼsir qilib, talaffuz va muloqotda turli akustik va koartikulyasion oʻzgarishlarga olib keladi. Bu munosabatlar fransuz tilidagi undosh tizimining dinamikasini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Akustik xususiyatlar: undoshlarning spektral (akustik toʻlqin) xususiyatlari va ularning jaranglilik yoki jarangsizlikka taʼsiri. grande (katta) soʻzida /g/ va /d/ fonemalari oʻrtasidagi farq akustik darajadagi munosabatlar namoyon boʻlishiga misol boʻladi. /g/ – **orqa til** (vélaire) undoshi boʻlib, tilning orqa qismi yumshoq halqum (**voile du palais**) ga tegib, keyin havo chiqib ketadi. /d/ – (**alveolyar, til oldinda hosil boʻladi**) – yuqoriroq formantlar (tovush toʻlqinining muayyan choʻqqi chastotalari) bilan xarakterlanadi, chunki til oldinga yaqinlashgani uchun tovush yoʻli qisqaradi va formant chastotalari yuqoriroqqa koʻtariladi.

Ikki undoshning jaranglilik darajasini (Degré de viosement) tahlil qilganimiz. /g/ va /d/ fonemalari jarangli undoshlar boʻlgani uchun tovush paychalari (**cords vocal**) ularning talaffuzi davomida harakatda boʻladi. Ammo, /g/ fonemasi til orqasi undoshi boʻlgani uchun uning jarangliliigi baʼzan sustroq boʻladi. Masalan, muloqot tezlashganda /g/ baʼzi kontekstlarda jarangsizlashishi mumkin (masalan, "**grande fête**" [gʁɑ̃t fɛt] – /d/ jarangsizlashib [t] ga aylanishi mumkin). Boshqa soʻzlardagi ikki fonema farqlarini kuzatamiz. Masalan: "**baguette**" [bagɛt] (non) soʻzidagi /g/ va "**badine**" [badin] (bola) soʻzidagi /d/ oʻzaro farqli, chunki /g/ orqa til undoshi boʻlgani sababli uning talaffuzi /d/ ga

qaraganda "og'irroq" eshitilishi mumkin. Yoki, "gâteau" (tort) va "**drapeau**" (bayroq) so'zlarida ham /g/ va /d/ undoshlari o'rtasidagi farq seziladi: /g/ ichidagi talaffuz engilroq, /d/ esa tezroq chiqadi.

Grande so'zidagi /g/ va /d/ fonemalari o'rtasidagi asosiy akustik farq ularning artikulyasiya nuqtasi, formant xususiyatlari, paydo bo'lish o'rniga qiymatlari va jaranglilik darajasida namoyon bo'ladi. Bu farqlarni tushunish fransuz tilidagi undoshlarning fonetik dinamikasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Pozision o'zgarishlar: so'z boshi, o'rta yoki oxirida kelgan undoshlarning turlicha ifoda qilinish darajalari.

Fransuz tili undosh tovushlari, boshqa tillardagi kabi, sintagmadagi o'rniga qarab o'zgarishi mumkin. Bu o'zgarishlar artikulyasiya kuchidagi farqlar bilan ya'ni aniqroq va ravshan talaffuz qilinadigan tovushlardan tortib, yumshoqroq va juda past darajada talaffuz qilinadigan tovushlargacha bo'lgan farqlar bilan ifodalanishi mumkin.

Ya'ni fransuz tilida fonetik kontekst, prosodik vositalar, koartikulyasiya ta'siri natijasida undosh fonemalarning talaffuzi so'z boshi, so'z o'rtasi va so'z oxirida turli pozision o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Bu o'zgarishlar ko'pincha oppozision undoshlar o'rtasida tahlil qilinadi [4. 92-104]. Biroq, ushbu tahlil bizga ko'proq bir undoshning so'zda turli holatdagi ishtiroki tahlilini o'rganishni taqozo qiladi. Albatta so'z boshidagi undoshlar aniqroq va ko'proq portlovchi undosh sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda, fonema lablar oldida to'siqqa uchrab portlab talaffuz qilinadi va frikativ (**fricative**) undoshlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan:

père [pɛːʁ] – "ota" (so'z boshida /p/ kuchli talaffuz qilinadi).

Appel [a-pɛl]- chaqiruv (so'z o'rtasida /p/ o'rta yumshoq talaffuz qilinadi)

Galop [ga- lo] (otda chopish, **loup** [lu] (bo'ri) yoki **sirop** [si-ʁo] (so'z oxirida /p/ talaffuz qilinmaydi). Odatda fransuz tili fonetikasida so'zning oxirida kelgan «d», «p», «s», «t» undoshlari talaffuz etilmaydi. Biroq so'z oxiri talaffuz etilmaydigan unli bilan tugasa, unlidan oldin qo'sh (geminata) undoshi p kelsa, masalan **grippe** [ɡʁip] -(tumor); **nappe** [nap]-(dasturxon), bu holatda undoshi so'z boshi va so'z o'rtasida kelgan undoshiga nisbatan yumshoq va kuchsiz talaffuz etiladi. Bunda p undoshshining joylashgan holatiga ko'ra darajalanish qatorini tuzamiz:

père [pɛːʁ] → **appel** [a-pɛl] → **galop** [ga- lo], **sirop** [si-ʁo]

So'z boshi → So'z o'rtasi → So'z oxiri

Talaffuz kuchli → **talaffuz o'rta yumshoq** → **talaffuz yumshoq (yoki yo'q)**

Fransuz tilida /b/ undoshining talaffuzi uning so'z boshida, o'rtasida va oxirida kelishiga qarab biroz farq qiladi. Fransuz so'z boshida kelgan b undoshi so'zning boshida portlovchi bo'lib, kuchli talaffuz qilinadi. Masalan: **beau** [bo] (go'zal), **bon** [bɔ̃] (yaxshi), **boire** [bwaʁ] (ichmoq). Bu holatda talaffuz o'zbek va ingliz tilidagi /b/ tovushiga o'xshab aniq jarangli talaffuz qilinadi.

Fransuz tilida /b/ tovushi so'z o'rtasida odatda yumshoqroq talaffuz qilinadi, lekin baribir portlovchi tovush sifatida saqlanadi. **"Table"** (stol) - /tabl/, **"Double"** (ikki hissa) - /dubl/, **"noble"** [nobl] (nufuzli, oliyjanob), **sable** [sabl] – "qum" so'zlarida [b] juda kuchli portlovchi emas, aniq eshitilsa-da, so'z ichidagi [b] kamroq jarangli talaffuz qilinadi. Va albatta, ayrim hollarda, muloqot jarayonida talaffuz tezlashganda so'zning o'rtasida kelgan [b] tovushi deyarli yumshoq talaffuz etiladi.

So'z oxirida kelgan [b] undoshining talaffuzi ko'p hollarda talaffuz qilinmaydi yoki juda yumshoq talaffuz qilinadi. Misollar keltiramiz: **"Arabe"** → /aʁab/ - bunda oxirgi b undoshi talaffuz qilinadi. **"Club"** (klub) → /klyb/ so'zida esa **"b"** undoshi **"p"** ya'ni (klup) bo'lib eshitiladi. Shuni xulosalashimiz mumkinki, fransuz tilidagi **"b"** undoshi so'z

boshida kuchli va portlovchi bo‘lib talaffuz etiladi, so‘z o‘rtasida yumshoqroq va so‘z oxirida jarangsizlashib, juda yumshoq talaffuz qilinadi yoki ba’zi holatlarda umuman talaffuz etilmaydi. Ya’ni so‘z oxirida kelgan plomb so‘zi oxiridagi b undoshi ã unlisini beruvchi om harf birikmasi ta’sirida talaffuz etilmaydi. Va /plɔ̃/ bo‘lib talaffuz tiladi

Masalan: aplomb, Colomb, coulomb so‘zlarida ham shunday hodisani kuzatishimiz mumkin.

beau [bo] → table [tabl], → club [klyb] yoki plomb [plɔ̃]

So‘z boshi → So‘z o‘rtasi → So‘z oxiri

Talaffuz kuchli → talaffuz o‘rta yumshoq → talaffuz yumshoq (yoki yo‘q)

[t] - undoshida ham shunday hodisani kuzatishimiz mumkin. So‘z boshida

table [tabl] “stol” so‘zidagi alveolyar [t] aniq va portlab talaffuz qilinadi. Fransuz tilida palatalizasiya (Til o‘rtasiching qattiq tanglayga tomon qo‘shimcha tarzda ko‘tarilishi, buning natijasida ovoz va shovqinniig kuchayishi bilan tovushning yumshashi.) mavjud emas, ya’ni tarkibida oldingi qatordagi unlilar kelgan holda ham, undoshlar yumshamaydi. Masalan, tir, téléphone, directeur so‘zlaridagi [t], [l], [d], [g] tovushlari qattiq talaffuz qilinadi.

Holbuki, rus va o‘zbek tilida shunday hollarda ushbu undoshlar yumshoq talaffuz qilinadi: tir, telefon, direktor.[5.11]

Batterie so‘z o‘rtasidagi /t/ undoshi ikki unlini o‘rtasida kelgani uchun yumshoq talaffuz qilinadi. Misol: **attaque, batterie** va hokozolar. Ammo so‘z hollarda so‘z oxirida kelgan kelgan /t/ undoshi talaffuz etilmaydi.

Масалан: mot, quart, habit, achat, écart, lait, béret, trait, départ so‘zlarning oxirida kelgan /t/ undoshi talaffuz etilmaydi. So‘z boshida qattiq- so‘z o‘rtasida yumshoq va so‘z oxirida talaffuz etilmaydi.

tir → batterie → mot

qattiq → yumshoq → talaffuz etilmaydi

Bu jarayonda /t/ undoshi qattqlikdan yumshoqlik va yo‘qlikka qarab darajalanadi.

Fransuz tilida undoshlarning pozision o‘zgarishlari (**so‘z boshi → kuchli, so‘z o‘rtasi → yumshoq, so‘z oxiri → yo‘qolish**), shuningdek, assimilyasiya, nazalizasiya, reduksiya kabi hodisalarning barchasi fonetik va fonologik darajalanish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar tilning fonologik tizimidagi undoshlarning dinamikasini belgilaydi va uning kommunikativ vazifasini samarali bajarishini ta’minlaydi.

XULOSA. Shu tariqa, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, undosh fonemalarning sintagmatikasidagi barcha jarayonlar - assimilyasiya, qisqarish, yo‘qolish, soddalashish, koartikulyasiya va pozision o‘zgarishlar — aslida darajali munosabat qonuniyatiga asoslanadi. Bu qonuniyat tillarning o‘ziga xos fonetik va fonologik xususiyatlarini belgilaydi. O‘zbek tilidagi chuqur til orqa fonemalarning ta’siri, fransuz tilidagi pozision o‘zgarishlar va liaison jarayonlari shuning yaqqol misolidir. Demak, darajali munosabat - til fonologiyasida undoshlarning asosiy qonuniyatlarini belgilaydigan, tilning kommunikativ vazifasini ta’minlaydigan, universal, ammo har bir tilda o‘ziga xos namoyon bo‘ladigan jarayondir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуазизов А. Ўзбек тилифонологияси ва морфонологияси. Тошкент “Ўқитувчи” 1992. 20 бет
2. Андрейчикова Л.П, Убайдуллаев М, Юсупова Н.А. Француз тили фонетикаси. 1992.15-16 бетлар
3. Le Petit Larousse. Dictionnaire encyclopédique Paris-.1993.p-237
4. Щерба Л.В.Фонетика французского языка. - М.: Изд-во иностр, лит. 1953. стр 92-104

5. Папова И.Н., Казакова Ж.А, Ковальчук Г.М. Французский язык. Москва: Нестор Академик, 2010. -11 стр
6. Нурмонова, Д. А. Ўзбек тилининг фонетикаси ва фонологияси. Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. 92-бет
7. Аликулова. Д.А.Жўрабоева. Д.А Француз тили дарслиги. Тошкент. “Ўзбекистон” нашриёти. 1999.13 бет
8. Трубецкой Н.С. Основы фонологии., Аспект Пресс, Москва, .2000
9. Мамасолиева, Г. А. (2023). ФРАНЦУЗ ВА ТИЛИ УНЛИЛАРНИНГ СИНТАГМАТИК ҲОЛАТДАГИ ДАРАЖАЛИ МУНОСАБАТИ. Finland International Scientific Journal of Education. *Social Science & Humanities*, 11(5), 2388-2396.
10. Мамасолиева, Г. (2023). Фонетик градуономия мунособатларининг айрим жиҳатлари (француз ва ўзбек тиллари мисолида). *ILMIY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура*,(4), 88-92.